



INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL ONLINE CONFERENCE

TEACHING FOREIGN LANGUAGES

TSUL ICON FLT



TASHKENT 2021



THE MINISTRY OF JUSTICE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

An international scientific and practical online conference on the topic
**TSUL INTERNATIONAL CONFERENCE ON
TEACHING FOREIGN LANGUAGES
(TSUL ICON - FLT)**

Foreign languages department

Tashkent – 2021

TILNI YANGI O'RGANUVCHILARGA O'RGATISHNING ENG SAMARALI USULLARI

Saidova Nozima – TDYU

Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi

e-mail: n.saidova@tsul.uz

DOI 10.5281/zenodo.4962788

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rgatishning eng maqbul usullari haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, til o'rganishning boshlang'ich davrida bo'lgan talabalar qaysi metodlarni qo'llaganda til ko'nikmalarini tezroq hamda samaraliroq egallashi mumkinligi bayon etilgan. Bundan tashqari, maqolada o'rin olgan har bir til o'rgatish texnikasining qisqacha tarixi hamda guruhlariga ta'riflab berilgan.

Kalit so'zlar *ko'nikma, kommunikativ metod, axborot, kodlash, analiz, sintez, mantiqiy fikrlash, anglab tushunish metodi, teskari zanjir, filtr, tarjima metodi, oyna metodi*

Til o'rganish zamon talabi bo'lib qolgan bir davrda boshlang'ich til o'rganuvchilarida:

ko'nikmalarni hosil qilish hamda materiallarni qisqa vaqt ichida anglab olishga yordam beradigan metodlar ro'yxatini tuzish eng dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Ushbu maqolada til o'rganishni endi boshlagan o'rganuvchilar uchun qo'llanilishi kerak bo'lgan eng foydali hamda natijali o'qitish uslublari tilga olinadi.

Zamonaviy til o'qitish uslublaridan eng ko'p qo'llaniladigan hamda tezroq natija beradigan bu Kommunikativ metod, ya'ni gapirish orqali tilni o'rganish. Ushbu metodni 1966-yil amerikalik lingvist va antropolog Del Haymes yaratib, yana bir qator hamkasblari tomonidan rivojlantirildi. Ushbu metodning asosiy maqsadi chet tilida ravon gapirishni o'rgatish bo'lib, bunda til o'rganuvchi o'rganayotgan tili bial o'rab olinadi, ya'ni o'z ona tilidan foydalanish ta'qiqlanadi. O'qituvchi o'quvchini xatolar qilishdan qo'rqqmaslikka da'vat etib, turli xil o'yinlar, qiziqarli mashg'ulotlar hamda rol o'yinlari tashkil etish orqali o'z fikrini o'rganayotgan tilida

bayon etishni so'raydi. Boshqa metodlardan farqli o'laroq, kommunikativ metodka nafaqat tilni tushunish balki til yaratishga alohida e'tibor beriladi.

Til o'rgatish darslarida eng ko'p qo'llaniladigan o'qitish uslublaridan yana biri –bu vazifalarga asoslangan o'qitish hisoblanib, u Kommunikativ metoddan ajralib chiqqan. Bunda o'quvchilarga maqsadli vazifalarni bajarish buyuriladi va real hayotda kerak bo'ladigan ko'nikmalar shakllantiriladi. Bular qatoriga doktor ko'rigiga borish, mashhur odamdan intervyu olish, restoranga tashrif buyurish tez mijozlarga xizmat ko'rsatish guruhini chaqirish kabilar misol bo'la oladi. Bunday topshiriqlarni bajargan o'quvchilar chet elga yoki xorijliklar davrasiga tushib qolganda vahimaga tushmasdan, tezda vaziyatdan chiqib keta oladi. Ushbu uslubni mukammallashtirgan hind lingvisti Prahbu til o'rganuvchilariga beriladigan mashg'ulotlarni 3guruhga bo'lgan:

- 1) Bo'sh axborotni to'ldirish, ya'ni bunda axborot bir odamdan ikkinchi odamga, bir shakldan ikkinchisiga yoki bir joydan boshqasiga ko'chiriladi. Qisqa qilib aytganda ma'lumotni kodlash yoki tildan yoki tilga ko'chirish. Bunday mashg'ulot sirasiga talabalarni juftlikka bo'lib, ma'lumotning birinchi yarmini bir o'quvchiga, qolgan yarmini ikkinchi o'quvchiga bergan holda bir-biri bilan og'zaki suhbat qilib berilgan rasmning yoki matnning ikkinchi bo'lagini topish vazifasi topshiriladi.
- 2) Fikrlash talab etadigan mashg'ulotlar, ya'ni berilgan ma'lumotdan analiz, sintez, mantiqiy fikrlash usullari orqali yangi ma'lumot ishlab chiqarish.
- 3) Fikr-mulohaza mashg'ulotlar berilgan holat yuzasidan shaxsiy fikr hamda hissiyotlarni ifoda etishni talab etadi. Bunga misol qilib aks ettiruvchi tavsif(reflective description)ni olishimiz mumkin, bunda o'quvchi berilgan rasm yoki matn haqida o'z fikrini bildirishi kerak.

Navbatdagi samarali metod bu Anglab tushunish metodi (Comprehensive method) bo'lib, bir guruh amerikalik lingvistlar Harris Units, Stefen Krashen hamda Jeyms Asherlar tomonidan ishlab chiqilib mukammallashtirilgan. Bu metod asosiy e'tiborni tilni ishlab chiqarishdan ko'ra tushunishga qaratadi. Ya'ni bunda o'rganilayotgan tilda matnlar o'qish, audiolar eshitish, so'zlarning to'g'ri talaffuzi

ustida ishlash, videolarni subtitrlar bilan ko'rish kabi mashg'ulotlar o'quvchilarga taqdim etiladi hamda ularga tilga ko'nikish uchun jimjitlik davri beriladi. Bu davr mobaynida o'quvchilardan tilda so'zlashish, o'z fikrini bayon etish talab etilmaydi, ular o'zlarini yetarlicha tayyor deb his qilishganda o'z xohishlari bilan gapirish ko'nikmalarini namoyon etadilar. Tushunish yondashuvining eng muhim tamoyillaridan biri bu ma'lumot yig'ish davri tushunchasidir. Ma'lumot yig'ish davri o'quvchining nutq qobiliyatiga yetarlicha ishonmaydigan yoki gapirishni boshlash uchun tilni yetarli darajada bilmagan vaqtini anglatadi. Shu vaqt ichida o'quvchilar iloji boricha oddiy ma'lumotlarga duch kelishadi va ularning ongida grammatik qoidalar va tarjima qilinadigan tilning so'z boyligi shakllanib boradi. Ular ko'proq til ko'nikmalariga ega bo'lib, asosiy grammatika va so'z boyligini yig'gandan keyingina tilda gaplashishni boshlaydilar va muloqot qilishga harakat qiladilar. Ushbu yondashuv asoschilaridan biri Krashen ikkinchi tilni o'rganish birinchi tilni o'rganishga o'xshaydi deb taxmin qildi. Va anglab tushunish va jimjitlik davri o'quvchilar o'zlarining til haqidagi tushunchalarini shakllantirishlari va gaplashishdan oldin bu aloqalarni o'rnatishi uchun juda zarur edi. Jimjitlik davridan tashqari yana bir muhim konsepsiya - samarali filtr g'oyasi. Stiven Krashen o'quvchilarning hissiy holati ularning ongida zaruriy aloqalarni o'rnatish qobiliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi va tilni xohlagancha tezda o'rganishiga to'sqinlik qilishi mumkin degan fikrni ilgari surdi. Talabalar ko'p miqdordagi tashvish yoki stressni his qiladigan ya'ni samarali filtr yuqori bo'lgan holatlar o'quvchilarning e'tiborini tilga qaratishni qiyinlashtiradi, chunki ular o'zlarining yetishmovchiligiga ko'proq e'tibor berishadi. Ta'sirchan filtrni pasaytirish yoki o'quvchilar his qilayotgan stress va xavotirni kamaytirish orqali siz ularning tilga e'tiborini va shu bilan tilni o'rganish qobiliyatini oshirasiz deydi. Talabalarga jimgina davrni berish, ularga so'zlashish talab qilinmasdan oldin tilni tinglashlari va o'zlashtirishiga imkon yaratib, filtrning ta'sirini pasaytiradi va talabalarga tezroq tilni egallashga yordam beradi.

So'zlarning to'g'ri talaffuz etilishi hamda gap strukturasi o'rganishda Audio-lingual metoddan foydalanish yaxshi natija beradi, chunki so'zlarni hamda

gaplarni eshitib ularni takrorlash o'quvchilarga ularni yaxshi eslab qolishga yordam beradi. Teskari zanjir texnikasi qiyin so'zlar yoki so'z birikmalarini o'rgatishda yaxshi natija beradi, chunki bunda uzun so'z oxirgi bo'g'inidan boshlab avval o'qituvchi tomonidan so'ngra esa talaba tomonidan takrorlanadi. Masalan, Incomprehensibilities so'zini birdaniga talaffuz qilish mushkullik tug'ilganda oldin-sibilities, keyin –comprehensibilities, va nihoyat incomprehensibilities so'zlari takrorlanadi.

Tilni umuman bilmaydigan hamda ushbu til muhitiga tushib qolganda o'zini noqulay his etadigan talabalarga Tarjima metodi dastlabki davrda juda yaxshi samara beradi. Chunki talaba o'z ona tilidagi tarjima bilan so'zni solishtirib, yodlaganda uni yaxshi eslab qoladi. Tarjima metodining bir nechta usullari mavjud bo'lib, bular qatoriga oyna metodi va sendvich texnikasi kabilar eng ko'p uchraydigan texnikalar sanaladi. Oyna metodi so'zlarni so'zma-so'z tarjima qilishni til ta'limida moslashtirishdir. Maqsad chet el konstruksiyalarini o'quvchilar uchun ravshan va shaffof qilish hamda ko'p hollarda ularni grammatik tahlilning texnik terminlari bilan chalkashtirmaslik. Ushbu usul asosan so'z birikmalari yoki qo'shma so'zlarni tarjima qilishda yaxshi natija beradi, chunki o'quvchilar qo'shma so'zning har ikkala qismi alohida tarjima qilish bilan uning ma'nosini keltirib chiqarishadi. Masalan, fire fighter so'zma-so'z tarjima qilganda olov kurashchisi deb tarjima qilinadi, idiomatik tarjimada esa o't o'chiruvchi bo'ladi. Keyingi tarjima metodi sendvich deb atalib, u idiomatik tarjimaning og'zaki variant sanaladi. Bunda aytilayotgan gap darhol og'zaki ravishda tarjima qilinib ketiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. The Practice of English Language Teaching (4th Edition) (With DVD) (Longman Handbooks for Language Teachers) Paperback – 31 May 2007
2. Teaching English as a Foreign Language (Teach Yourself Series) Paperback – 28 Mar. 2003
3. An A-Z of ELT (Methodology) (Methodology S.) Paperback – 17 May 2006 by Scott Thornbury



4. Saidova, N. A. (2021). “GARRI POTTER” ASARIDA FANTASTIK OBRAZLAR TAHLILI. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
5. Saidova Nozima (2021). “GARRI POTTER”—FENTEZI JANRINING ENG MASHHUR NAMUNASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (1), 11-18.
6. Maxliyo, M. (2019). REVIEW OF THE SCIENTIFIC TRANSLATION PROBLEM. *Сўз санъати халқаро журнали*, 1(5).
7. Yuldashevna, M. M. (2019). THE INTERPRETATION OF THE CONCEPT "KNOWLEDGE" IN ENGLISH LITERATURE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(10).
8. Abdijalilova, Z. D. (2007). FORMATION OF THE DISCURSIVE COMPETENCE OF LAW STUDENTS IN TEACHING WRITING IN A FOREIGN LANGUAGE. *BBC 94 Z 40, (41-S)*, 244.
9. Shokirovich, T. O., & Abdijalilovna, Z. D. (2020). Teaching EFL and ESP for Law. Activities and challenges during the covid-19 pandemic in Uzbekistan. *Solid State Technology*, 63(6), 8318-8325.